


7. Professor-o'qituvchilarning **Ilmiy faoliyat samaradorligi bo'yicha hisobot** (olimlar va tadqiqotchilar, doktorantlar, xalqaro ilmiy faoliyat, maqolalar)

Xozirgi kunda universitetda universitetning ilmiy ustuvor yo'nalishlariga mos sarlavhalarda chop etiladigan 3 ta jurnal faoliyat olib boradi. Ulardan, "Filologiya masalalari" va "O'zbekistonda xorijiy tillar" nomli ilmiy-uslubiy jurnallari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatida mavjud (<https://journal.fledu.uz, pm.uzswlu.uz>). Shuningdek, universitet huzurida "Komparativistika" nomli ilmiy-uslubiy jurnal faoliyat yuritmoqda. Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan 2023-2024 yilda xorijiy ilmiy jurnallarda 644 ta va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 570 ta ilmiy maqolalar hamda 30 ta monografiyalar chop etildi. Joriy yil yakunigacha 21 ta Respublika va xalqaro miqyosdagi anjumanlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Universitet faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning 26 nafarining h-indeksi 5 va undan yuqori ko'rsatgichda (https://scholar.google.com/citations?hl=ru&view_op=search_authors&mauthors=%D1%83%D0%B7%D0%B3%D1%83%D0%BC%D1%8F&btnG=).

So'ngi uch yildagi asosiy ko'rsatkichlar



	Ilmiy salohiyat	Xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar bo'yicha o'sish dinamikasi	OAK ro'yxatidan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar	Doktorantura, tayanch doktorantura va stajor-tadqiqotchilikka kvotalar soni	Chop etilgan monografiyalar soni
■ 2022	21.00	563	258	22	14
■ 2023	18.00	631	228	44	15
■ 2024	28.60	644	570	61	30

■ 2022 ■ 2023 ■ 2024

